

O'quvchi-yoshlar — teatr sahnasida

Viloyat musiqali drama teatrida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazib kelinayotgan "Turon" maktab teatri jamoalari o'rtasidagi tanlovning mamlakat bosqichi bo'lib o'tdi.

Umumta'lim maktablarining 6—11-sinf o'quvchilaridan iborat jamoalar o'rtasida o'tkazilayotgan tanlovning hududiy bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan 14 ta jamoaning mahoratini yurtimiz teatr san'ati darg'alari baholab bordi.

— Sahn — mardlar maydoni, muqaddas dargoh, unda faqat iste'dodli, san'atga oshufta qalblar o'z ijodiy qobiliyati, iqtidorini namoyish etgan holda g'oliblikka erishadi, — deydi tanlov hakamlar hay'ati a'zosi, O'zbekiston Xalq artisti Zuhra Ashurova. — Tanlov o'z nomi bilan tanlov, unda munosiblar tanlanishi zarur.



Eng iqtidorli, teatr san'atining munosib davomchilari bugun g'oliblar safida e'tirof etilishi kerak. Biz ana shunday munosiblarni tanlashga harakat qilamiz. Hammaga omad tilab, bor iqtidorlarini namoyish etishlarni so'rab qolamiz.

Ko'rik-tanlov nizomiga muvofiq, ishtirokchilar birinchi shartda jamoalar o'z maktablarini teatrlashtirilgan holda tanishtirishi hamda 5 ta teatr san'atiga oid savolga javob berishgan bo'lsa, ikkinchi "Teatr — ibratxona" shartida har bir jamoa ma'lum bir asar asosida kichik sahna spektaklini namoyish etishi belgilandi. Ishtirokchilar har bir shartda bilim va iste'dodlarini namoyon etib, g'oliblik uchun jiddiy bellashishdi. Ularning qay biri eng faol va iqtidorli ekanligini hakamlar hay'ati tomonidan bugun taqdim etiladigan yakuniy natijalar orqali bilib olamiz.

Shuningdek, bugun milliy cholg'u san'atiga qiziquvchi o'quvchilardan tuzilgan maktab ansambllari o'rtasidagi "Iqtidor" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi ham bo'lib o'tadi. Har ikkala tanlov g'oliblari bugun "Bog'liq shahar" majmuasida bo'lib o'tadigan taqdirlash marosimida e'lon qilinadi.

A. DOLYEV

Hokim Qorasuvdagi muammolarni o'rgandi



Shahar hokimi Fazliddin Umarov mas'ullar ishtirokida Qorasuv maskanida bo'lib, chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etish, obodonlashtirish ishlari, ko'p qavatli uylar atrofida sanitariya holatini yaxshilash, yo'llar va bolalar maydonchalarini tartibga keltirish masalalarini ko'rib chiqdi.

O'rganish davomida hokim hududda yashovchi fuqarolar bilan muloqotda bo'lib, ularning taklif va murojaatlarini tingladi.

— Qorasuv maskanini fuqarolar o'zlarini barcha qulayliklarga ega Yangi Samarqandda yashayotganliklarini his etadigan maskanga aylantirishimiz zarur, — dedi hokim fuqarolar bilan muloqotda — Buning uchun bizda barcha imkoniyatlar bor. Faqat barcha birdek, mas'uliyatni his etib birgalikda harakat qilsak kifoya. Birdamlik, hamjihatlik bor joyda baraka, unum bo'ladi. Barcha mas'ullar, mutasaddilar birgalikda hududdagi muammolar yechimiga e'tibor qaratib, fuqarolarimiz uchun yetarli yashash sharoitlarini yaratishga kirishamiz.

Shahar hududini obodonlashtirish, ko'kal-mazorlashtirish, sanitariya holatini yaxshilash bo'yicha hokim rahbarligidagi o'rganish tadbirlari davom etmoqda.

Shahar hokimligi axborot xizmati



BEMORLARGA JON BAG'ISHLAYOTGAN SAXOVATPESHALAR

Viloyat qon quyish stansiyasida 14-iyun — Butunjahon donorlar kuni munosabati bilan "Qon bering, umid bering: biz birgalikda hayotni qutqaramiz!" shiori ostida xayriya aksiyasi o'tkazildi.

Tadbirda viloyatdagi davlat va jamoat tashkilotlari, tibbiyot muassasalari xodimlari, faxriy donorlar ishtirok etdi.

— Ushbu bayramni o'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsad turli xastalikka chalinganlar hayotini saqlab qolish, salomatligini mustahkamlash yo'lida qon topshirishning ijtimoiy ahamiyatini keng omma o'rtasida chuqur targ'ib etishdan iborat, — deydi viloyat qon quyish stansiyasi bosh vrachi Rofe Aleev. — Donorlik harakatini kuchaytirish, qon topshirish va tibbiyot muassasalarini qon bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish yo'lida markazimizda ham keng ko'lami amaliy ishlar bajarilmoqda. Favqulodda vaziyatli holatlarda muammoni hal etish uchun yetarli qon zaxirasini yaratish, odamlarda donorlikka bo'lgan qiziqishni kuchaytirishdan iboratdir. Shu yil 25-maydan keyingi davrda 500 nafardan ortiq donor markazimizga tashrif buyurib, qon topshirgan. Ularning aksariyati ko'ngilli donorlar ekanligi ahamiyatli.

Keyingi davrning o'zida Onkogematologik va davolash qiyin bo'lgan bemorlarni sog'lomlashtirishga ko'maklashish jamg'armasi mablag'larini hisobidan AQShda ishlab chiqarilgan qiymati 560 million so'm bo'lgan "Trima accel" tibbiy uskunasi hamda 50 nafar donorning qonini qayta ishlash uchun 154 million so'mlik sarflov materiallari berildi. Bundan tashqari, maxsus avtotransport vositasi ajratildi.

Donorlarning xalqaro bayrami munosabati bilan beg'araz donorlar — Karen Grigoryan va Varvara Durandina O'zbekiston Respublikasi "Faxriy donori" ko'krak Grihonini bilan taqdirlandilar.

Nigora SUYUNOVA



SOG'LOMLASHTIRISH MAYDONCHALARI

ta'tilni mazmunli o'tkazishga ko'mak beradi

O'quv yili nihoyasiga yetib, o'quvchilar orziqib kutilgan yozgi ta'tilga chiqdilar. O'quvchilarning yozgi ta'tilini mazmunli tashkil etish, ularning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 9-apreldagi "2025-yil yoz mavsumi davomida bolalarni dam oldirish va sog'lomlashtirish ishlari tayoqchilik ko'rish hamda mavsumni yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida"gi yig'ilish bayonida berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan, joriy yilning 10-iyunidan e'tiboran shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 8 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan Sog'lomlashtirish maydonchalari o'z faoliyatini boshladi.

Dam oluvchilar, ota-onalar va mas'ullar ishtirok etgan 81-umumiy o'rta ta'lim maktabida tashkil etilgan sog'lomlashtirish maydonchasining ochilish marosimi yuqori saviyada o'tkazildi. Maktab qoshida tashkil etilgan "So'g'diyona" raqs ansambli qatnashchilari tomonidan tayyorlangan raqs va kuy-qo'shiqlar ta'dbirning haqiqiy bezagiga aylandi. Ta'dbir davomida ishtirokchilar turli viktorina savollari va sport o'yinlarida ishtirok etib, esdalik sovg'alarga ega bo'ldilar.

— Maktabimizda tashkil etilgan "Kamolot" nomli sog'lomlashtirish maydonchasida, jami 4 davrada 350 nafar o'quvchi qamrab olinadi,

— deydi maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Elbek Sagdullayev. — Shundan, har biri 10 kundan iborat bo'lgan davrada yuz nafargacha dam oluvchi jalb qilinadi. Shu bilan birga, Qorasuv massivi hududida joylashgan 80 — 82-maktab o'quvchilari ham bizning maktabga birlashtirilgan. Maydoncha shanba va yakshanba kunlaridan tashqari har kuni soat 8:00 — dan 14:00 gacha faoliyat ko'rsatadi. Kun davomida o'quvchilar turli sport o'yinlari, texnologiya, tasviriy san'at va boshqa fan to'garaklarida ishtirok etadi.

Shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan Sog'lomlashtirish maydonchalariga 4 davra davomida jami 2830 nafar dam oluvchilarni qamrab olish rejalashtirilgan. Sog'lomlashtirish maydonchalarida dam olish bolalarini uchun mutlaqo bepul bo'lib, ularga kun davomida vaqtlarini mazmunli o'tkazish imkoniyati yaratiladi. Tajribali o'quvchilardan tashkil topgan tarybiyachi va yetakchilari jamoasi, bolalarining yozgi ta'tilini mazmunli va qiziqarli o'tkazishlari uchun bosh-qosh bo'ladi.

Bekzod MUSURMONOV, "Samarqand" muxbiri

• Inson va qonun

Xususiy ayblov instituti

Uni tashkil etish ehtiyoji paydo bo'lmoqda



Bugungi kunda huquq-tartibot idoralarga kelib tushayotgan e'tiroz va shikoyatlarining ayrimlari e'tibordan chetda qolayotganligi — jabrlanuvchi huquqning buzilish jarayonlari kuzatilmoqda.

Bu muammoni hal etishning huquqiy asoslari amalda joriy etilgani. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasining

Jinoyat prosesida jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilishning amaldagi samarali institutini ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishda ham keng qo'llash zaruriyati paydo bo'ldi.

Ayni paytda ma'muriy huquqbuzarliklar uchun tushmat, hqorat qilish, hujjatlar bilan tanishib chiqishni asossiz rad etish singari holatlar jabrlanuvchining arizasiga asosan olib boriladi. Bundan tashqari, turar-joy

daxlsizligi, yangil tan jarohati yetkazish, mulkin qasddan yo'qotish yoki unga zarar yetkazish holatlari ham shu asosda olib boriladi. Xususiy ayblov instituti joriy etilishi bilan huquqbuzarlikning yuqoridagi holatlarini ko'rib chiqish bir muncha soddalashtiriladi. Eng muhimi, fuqaroning arizasida ko'rsatilgan huquqiy talablari ijrosini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

O'zgartirish va qo'shimchalar tufayli mahalliy davlat hokimiyati organlarining jarimani eng ko'p miqdorida belgilashga doir vakolatlari bekor qilinmoqda. Yangi o'zgartirish va qo'shimchalar qonun huquqiy ta'sir choralarining asossiz qo'llanishiga barham beradi. Muhimi, fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi

• Matbuot anjumani

BOJXONACHILAR HISOBOT BERDI

Viloyat bojxona boshqarmasi tomonidan joriy yilning o'tgan 5 oyida davlat budjetiga 1 trillion 485,9 milliard so'm tushum qilingan.

Bu haqda, viloyat Matbuot uyida tashkil etilgan matbuot anjumanida viloyat bojxona boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Anvar Muhammadiyev ma'lumot berdi.

Ma'lumotga ko'ra joriy yilning o'tgan 5 oyi mobaynida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida bojxona to'lovlaridan 1 trillion 629,9 milliard so'mga yaqin imtiyoz va tarif preferensiyalari ham qo'llanilgan.

— Eksport hajmi 458,4 million AQSH dollarini tashkil etib, 2024-yilning shu davriga nisbatan 155,3 million AQSH dollariga oshdi, — deydi A.Muhammadiyev. — Aniqlangan 980 ta huquqbuzarlik sababli 17 milliard so'mdan ziyod tovar va transport vositalarining noqonuniy aylanmasiga chek qo'yildi. Bundan tashqari, 18 holatda qariyb 10 kilogramm gilyovvandlik moddasi ushlab qolindi. Shuningdek, 11 marta alkogol mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi fosh etilib, 223,3 million so'mdan ziyod 2889 litr alkogol mahsulotlari hamda 1,2 milliard so'mlik 19836 quti tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi to'xtatib qolindi.

Ma'lumot berilishicha, zargarlik buyumlarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish borasida ham boshqarma xodimlari tomonidan 47 ta holatda 2,8 milliard so'mlik 2 906 gramm zargarlik buyumlari ashyoviy dalil sifatida ushlab qilingan.

Tadbir yakunida jurnalistlarning bojxona deklaratsiyasini to'ldirish, xorijdan mol-mulk olib kelish hamda zargarlik buyumlari bilan bog'liq savollarga soha mutaxassislari tomonidan batafsil ma'lumot berildi.

Sh. ASHUROV

• Huquqingizni bilasizmi?

Qarz shartnomasi

Bu boradagi muammolar va tushunmovchiliklar nega ko'paymoqda?

Hayot shundayki, bugungi kunda boy ham, kambag'al ham o'z muammosini hal etish yo'lidagi tanish-bilishlaridan qarz olmoqda.

Shuni katta muammoki, oluvchi va beruvchi o'rtasidagi muddat poyoniga yetgach, aksariyat holda oluvchining imkoniyati cheklanganligi sababli o'rtadagi qarzni ushlab qo'yib ketadi.

Natijada, qarz beruvchi qiyin ahvolda tushib qolmoqda. Holbuki, oluvchi falon muddatda qarzingni qaytarman, deb va'da bergan. Odatda, bunday va'dalarning ijrosini kutish cho'ziib ketadi.

Natijada, qarz beruvchi qiyin ahvolda tushib qolmoqda. Holbuki, oluvchi falon muddatda qarzingni qaytarman, deb va'da bergan. Odatda, bunday va'dalarning ijrosini kutish cho'ziib ketadi.

Xalqimizda qarz oldi-berdi bilan bog'liq yozilmagan tarbiy, udumlar mavjud. Hozirda yo'liga qo'yilgan bunday tartiblar o'zaro munosabatlari, mehr-oqibatlar talabiga muvofiq tashkil etiladi. Bugungi kunga kelib, yuqoridagi milliy an'anamiz chetga surib qo'yilmoqda. Amaldagi qonunchilikka muvofiq eng yaqin kishilar o'rtasida ham, begonalar orasidagi oldi-berdi munosabatlari ham O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining tegishli maddasida belgilangan talabga muvofiq, qarz hajmi eng kam ishi haqining 10 barobaridan ziyodini tashkil etsa, o'rtada yozma shakldagi shartnoma tuzilishi va notarial tartibda tasdiqlanishi zarur.

Qarz shartnomasida to'lov miqdori, rasmiylashtirilgan sana, joyi, majburiyat bajarilishini ta'minlash usullari, qaytarish muddati aniq belgilab qo'yilishi shart.

Agar, shartnoma qarzni qaytarish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, qardzor o'z zimmasidagi majburiyat, ya'ni, qarz to'lovini amalga oshirishni shartnoma belgilangan sanadan boshlab adolati kerak. Mabodo ushbu shartga amal qilinsa O'zbekiston Respublikasining Notariat to'g'risidagi qonunining 73-moddasiga muvofiq qarz beruvchining iltimosiga ko'ra notarius qardzorga qarz beruvchining arizasi asosida qarz olgan tarafa nisbatan notarial harakatni amalga oshirish va bu haqda guvohnoma berishi mumkin. Ushbu hujjatga muvofiq shartnoma majburiyatlari bajarilgan taqdirda notarius tegishli qonunga muvofiq iro xatini yozadi.

Yuqoridagi qonunda shartnoma bo'yicha qarz beruvchi foiz olishga haqli ekanligi ham belgilangan. Bu miqdor qanday hajmda ekanligi mahalliy bank muassasasining xulosasi va qonun talabiga muvofiq aniqlanadi.

Qarz olish va berish muammosi kecha yo bugun paydo bo'layotgani yo'q. Odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabat va ishonchning sekinlashuvi oqibatida qarz bilan bog'liq muammolar kelib chiqmoqda. Endi tanish va yaqinlarimizdan qarz olmoqchimisiz, yoki, qarz bermoqchimisiz — albatta, qarz shartnomasini tuzishni unutmang. Bu hujjat har ikki tomonning ham huquqiy manfaatlarini himoya qiladi.

Umid NORQULOV,
xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius

• E'tirof



Turistik politsiya

Yangi O'zbekiston imkoniyatlarini namoyon etmoqda

Samarqandga sayohatim chog'ida avtobusda hamyonimni tushirib qoldiribman.

Hamyonimda kredit kartalarim, ijtimoiy shug'urta, pullarim bor edi. Vahimaga tushib, internet orqali O'zbekiston Turistik politsiyasiga murojaat qildim. Ingliz tilida ravan va qisqa suhbatdan so'ng, operator avtobusni topishga va'da berdi.

Oradan bir soat o'tar-o'tmas mehmonxonaga hamyonimni qo'lida tutgan xodim kirib keldi. Shuni e'tiborliki, pullarim ham, kartalarim ham joyida edi. Xodim Samarqand tarixi, ziyoratgohlar haqida ma'lumot berdi. Ana shunda turistik politsiyaning xorijlik sayyohlarga ko'rsatayotgan yordami haqida qo'shimcha tushunchalarga ega bo'ldim.

Sayyohlarga qulaylik yaratish, g'amxo'rlik ko'rsatish uchun tashkil etilgan maxsus politsiya bo'limi G'arbda deyarli tashkil etilmagan. Bu tizim oddiy foydali qulaylik emas, balki, davlatning xorijlik sayyohlarga yaratayotgan xavfsizligi, do'stona munosabatini ham ifodalaydi. Turizmi rivojlantirishni maqsad qilgan rivojlanayotgan mamlakatlarda Yangi O'zbekistonning bu xayrli tajribasini keng joriy etish lozim, deb hisoblayman.

O'tgan yili O'zbekistonga 7,3 million xorijiy sayyoh tashrif buyurib, mamlakat iqtisodiyotiga 2 milliard dollardan ziyod foyda keltirganligi sohaning tez sur'atlar bilan rivojlanayotganligini anglatadi. 2017-yilda mamlakatga 2,7 million sayyoh tashrif buyurganligini yodga olsak, bu yurtda sayyohlik qanday sur'atlar bilan rivojlanayotgani ko'z oldimiza namoyon bo'ldi. Bugungi kunda 90 dan ortiq davlat fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etilganligi katta qulayliklardan biridir. Xorijdan turistlarni jalb etish uchun alohida dastur ishlab chiqilganligi, unga

transport-logistika, servis xizmati, infratuzilmani takomillashtirish tizimi keng joriy etilayotganligi eng katta yutuqlardan biridir.

O'zbekistonni yaxshi bilmaydigan va birinchi marta bu yerga sayohat qilayotgan xorijliklar orasida xavfsizlik va qulaylik haqidagi tasavvur yetarli emas. Biroq, O'zbekistonda bu muammo allaqachon ijobiy hal etilganligi xorijlik sayyohlar uchun barcha qulayliklar yaratilganligiga shaxsan o'zim shohid bo'ldim. Turistik politsiya xorijlik mehmonlarning xavfsizligini ta'minlayotganligi boshqa mamlakatlar uchun o'rganishga va amalda qo'llashga arziydigan tajribadir. Ushbu xizmatning amalga oshirilishi xorijlik sayyohlarning oqimini oshirmoqda.

Samarqandda men bilan bog'liq muammoning o'zim xayolimga ham keltirmagan qisqa vaqt ichida hal etilishi xorijiy sayyohlarning bu yerdan uzoqroq qolishi, shahar tarixi, mahalliy xalq hayoti, milliy madaniyati bilan tanishish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Mehmondo'st muhitning yaratilganligi sayyohni yanada xotirjam etadi. O'zbekistondagi Turistik politsiya xizmati tufayli nafaqat xavfsizlik xizmati keng qo'llanilmoqda, balki, mamlakatni jahonga tanitmoqda. Bu holat davlatning zamonaviy va mehmondo'st manzil, xalqning xalqaro obro'sini mustahkamlashga xizmat qilindi. Aminmanki, global turizm doirasida ko'pincha noto'g'ri tushunilgan, yoki e'tibordan chetda qolgan mintaqada bunday tizimning yaratilishi O'zbekistonni jahonga tanitishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ashvin RAGHURMAN,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi Istitbotli xalqaro tadqiqotlar instituti izlanuvchisi, AQSHning Hotr-Dam universiteti tadqiqotchisi

Новые подходы к психиатрической помощи

• Перспективы национальной медицины.

Поставленная Президентом Узбекистана задача, перед органами здравоохранения — добиться повсеместного и полного удовлетворения потребностей жителей города и села в высококавалифицированном психиатрическом обслуживании и повышении его качества требует совершенствования организации психиатрической помощи. Одним из важнейших условий интенсификации психиатрической службы и перевода ее на более высокий уровень является раннее выявление психически больных среди населения и их своевременное лечение.

Постановление Президента Республики Узбекистан "О мерах по дальнейшему развитию службы охраны психического здоровья населения" от 19 июня 2023 года во главу задач ставит профилактику психических заболеваний, то есть легче предупредить, чем лечить. Почему это важно?

Начнем с того, что рост впервые выявленного контингента психически больных зависит от социально-демографических факторов (семья, пол, профессия, образование), места жительства (город, село), доступности и всеобщего охвата населения психиатрической службой.

Одной из главных целей реорганизации психиатрической службы являются децентрализация психиатрической помощи


и приближение ее к населению, а также преодоление все еще существующего психологического барьера между населением и психиатрической службой. Разработанные еще в советский период принципы диспансерного учета и динамического наблюдения за пациентами предусматривали медико-социальные ограничения, которые закономерно формировали у населения негативное отношение к психиатрической службе. Справедливости ради следует отметить, что эти «объективные ограничения» необоснованно стали распространяться и на лиц с пограничными (легкими) психическими расстройствами. А это привело, в свою очередь, к тому, что постановка человека на диспансерный учет у психиатра неизбежно приводила к стигматизации в обществе и, как следствие, отталкиванию местного, особенно сельского, населения от диспансерного учета и нежеланию больных и их родственников контактировать с врачами-психиатрами, особенно на дому.

В нашей стране за последние годы произошла существенная гуманизация психиатрической службы, о которой свидетельствуют статистические данные о психически больных. В настоящее время около половины впервые выявленных психиатрической службой больных составляют пациенты с пограничными (легкими) психическими расстройствами,

которые не нуждаются в обязательном учете. Этот достоверный статистический показатель указывает на доступность психиатрической помощи и кардинальное изменение отношения населения к нашей службе.

В настоящее время психиатрическую помощь оказывают 14 районных психиатрических кабинетов и диспансерное отделение областного центра психического здоровья. В связи с либерализацией положения об оказании психиатрической помощи в психоневрологических диспансерах своевременно ввели категорию «консультативных» больных, которые, получая необходимую квалифицированную психиатрическую помощь, а то же время не становятся учетными больными. Новый принцип создает условия для преодоления психологического барьера между больными, их родственниками и психиатрической службой. Следует особо отметить, что этот положительный опыт требует постоянной оптимизации существующих форм учета, совершенствования лечебных методов и отвечает сегодняшним требованиям общества.

В последние годы внесены ряд изменений по гуманизации правил диспансерного учета душевнобольных. К ним относятся формирование группы больных профилактического наблюдения без постановки на «Д» учет, которые наблю-



даются по телефону или по видеосвязи. Это бесконтактное общение сотрудников психоневрологического диспансера, психиатрических кабинетов районов исключает морально-психологические травмы у больных и их родственников.

Решение о взятии на диспансерный учет и динамическом наблюдении принимает врачебно-консультативная комиссия (ВКК) психоневрологического диспансера (диспансерного отделения), а в сельских районах и городах — ВКК лечебного учреждения, в состав которого входит врач психиатрического кабинета.

Таким образом, предложенная оптими-

зированная схема взятия, снятия с учета душевнобольных, дифференцированный подход к диспансерному наблюдению и проведение ранних терапевтических мероприятий полностью себя оправдывает. Следует особо подчеркнуть, что взятие на «Д» учет не носит постоянный характер и периодические пересматривается для своевременного снятия с учета и приведения его в соответствие с профилактической направленностью оказания психиатрической помощи населению.

Шероз ИМАМОВ,
директор областного центра психического здоровья РСНМЦПЗ

Harakat tig'izlashgan

buning ortidan yo'llarda turli hodisalar ko'paymoqda

Yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash uchun mas'ul idoralardan birining rahbari bergan hisobotdan shunday xulosa qilish mumkin. Hisobotda keltirilishicha, so'ngi 5-6 yil ichida shahar hududida amalga oshirilgan qurilish, obodonlashtirish ishlari, aholi salohiyati, urbanizatsiyasi, ichki turizm hamda xalqaro delegatsiyalar tashrifi oshgan.

Bu fikrni dalillash uchun shaharda mehmonlar ko'payganligi qayd etiladi. Xususan, shahrimizga 2018-yilda 354 ming 100 nafar xorijiy va 2 million 155 ming mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan. 2024-yilda esa xorijlik turistlar 2,5 milliondan ko'proq bo'lgan, mahalliy sayyohlar esa 4,7 milliondan oshgan.

Darhaqiqat, raqamlardan keyingi 4-5 yil ichida xorijiy va mahalliy sayyohlarni oqimi bir necha barobar oshganligi ko'rinadi. Qolaversa, shahar hududida 20 mingdan ko'p jumladan, 2682 ta yuridik, 17 ming 173 ta jismoniy shaxslar transport vositalari ro'yxatga olingan. Bundan tashqari, bir necha oydan buyon shaharning asosiy ko'chalarini — Buyuk Ipak yo'li, Gagarin va Rudakii ko'chalari chorrahalarda qurilish, obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu kabi rekonstruksiya jarayonlari o'z navbatida nafaqat serqatnov ko'chalari, balki, ichki yo'llarda ham tirbandlikni yuvudga keltirib, qoidabuzarliklar va yo'l-transport hodisalarini ko'paytirmoqda.

52 TA "AQLLI SVETOFOR" BOR

Yo'l uchastkalari va chorrahalarni realizatsiya qilish, ularni qoidabuzarlikni elektron aniqlovchi intellektual videokameralar bilan jihozlash choralarini ko'rilmoqda. Jumladan, shahar hududida chorraha va yo'llarda 207

ta yo'l belgisi va svetoforning qizil chirog'iga, 21 ta to'xtash va yo'xtab turishni ta'qilovchi yo'l belgisiga rioya qilmaslik, 31 ta tezlikni oshirish bilan bog'liq qoidabuzarliklarni aniqlovchi onlayn videokameralar ishlab turibdi.

Bundan tashqari, 52 ta svetofor transport vositalarining oqimi hajmini hisobga olgan holda avtomatik tarzda rejimini o'zgartirib turadigan "aqli svetofor" kallaklariga almashtirildi. Ularga vaqt ko'rsatish tablolarini o'rnatilgan, internet tarmoq'iga ulangan.

Joriy yilda qo'shimcha ravishda 17 ta serqatnov chorraha va ko'chada videokuzatuv kameralari va tezlikni o'lchash moslamalari (radar) o'rnatiladi.

Ushbu intellektual kameralarning barchasi svetoforning qizil chirog'iga bo'ysunmaslik, yo'l chizig'i, telefonidan foydalanish, tezlikni oshirish va xavfsizlik kamaroni taqsimlik bilan bog'liq qoidabuzarlikni onlayn aniqlay oladi.

HOLAT YOKI TAHLIL NIMANI KO'RSATMOQDA?

Hisobotda qayd etilishicha, joriy yilning dastlabki ikki oyida transport vositasini mast holda boshqargan 217, tegishli hujjatdarsiz boshqargan 1443, svetofor chirog'iga bo'ysunmagan 5636, telefonidan foydalangan 527, odam tashish qoidasini buzgan, 747 va yo'l harakati xavfsizligi bo'limi xodimlarining qonuniy xatt-harakatlariga bo'ysunmagan 107 nafar haydovchiga nisbatan ma'muriy byayonoma rasmiylashtirilgan.

Shuningdek, 870 nafar piyoda tomonidan sodir etilgan qoidabuzarliklar qayd qilingan.

Shu o'rinda qiziq bir statistika, yo'l harakati

xavfsizligi bo'limi vakolat doirasiga kiruvchi ma'muriy byayonnomalar bo'yicha 7 milliard 277 million 315 ming so'm, jarimalarning 3 milliard 507 million 916 ming so'mi undirilgan.

Darvoqe, yana bir gap, joriy yilning 2 oyi yakunida 2024-yilning shu davriga nisbatan sodir etilgan jami yo'l-transport hodisalarini, ularida jarohat olganlar va halok bo'lganlar soni kamaygan.

Lekin, sodir etilgan yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablari va turlarining tahliliga ko'ra, odam tashish qoidasini buzish va chorrahadan o'tish qoidasini buzish oqibatida sodir etilgan YTHlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan ko'paygan.


KO'RILAYOTGAN VA BELGILANAYOTGAN CHORALAR

Hisobotga ko'ra, shahar hududida sodir etilgan yo'l-transport hodisalarini statistikasiga tranzit o'tuvchi va boshqa viloyat, shahar-tumanlardan kelgan haydovchilarning ulushi ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jumladan, shahar hududida sodir etilgan 15 ta yo'l-transport hodisalarining 46,6 foizi o'l'im bilan bog'liq, YTHlarining 50 foizi tan jarohati bilan bog'liq, YTHlarining 46,5 foizi boshqa viloyat va tumanlarda yashovchi haydovchilar tomonidan sodir etilgan.

Yo'l-transport hodisalarining tahlili asosida asosiy va serqatnov yo'llardan tashqari, ichki hamda bozor va yirik savdo majmualari joylashgan ko'chalarda ham radar, qoidabuzarliklarni aniqlovchi kameralar bilan jihozlangan patrul avtomashinalarining taqsimoti qayta ishlab chiqilgan.

Tirbandliklarning oldini olish va transport vositalari oqimini yo'naltirish maqsadida shahar ko'chalari



olib borilayotgan qurilish, rekonstruksiya ishlari qisqa muddatda yakuniga yetkazish, buning uchun ish hajmidan kelib chiqib, qo'shimcha kuch jalb qilish taklif qilingan.

Shahar hokimligiga "Xavfsiz va ravon yo'l" umummilliy dasturi talablari asosida "xavfli" uchastkalarda harakat ishtirokchilarining xavfsiz harakatlanishi uchun tegishli sharoit yaratish, qoidabuzarliklar, yo'l-transport hodisalarining oldini olish uchun maxsus avtomatlashtirilgan foto-video dasturiy texnik vositalarni o'rnatishda amaliy yordam ko'rsatish yuzasidan so'rovnomna yuborilgan.

Bundan tashqari, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha hokimiyat, yo'l idorasi va boshqa mutasaddi tashkilotlarga 2 ta taqdimnoma kiritilgan.

"Yo'l harakati xavfsizligi" to'g'risidagi qonun talablari asosida yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlashga mas'uliyatsizlik bilan yondoshgan korxona-tashkilotlarning 5 nafar mas'ul rahbarlariga nisbatan ma'muriy byayonoma rasmiylashtirilgan.

Yo. MARQAYEV tayyorladi.

• Bilamidingiz?

Yo'l harakati qoidabuzarliklari jarima ballari asosida baholanadi!

O'tgan oyda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan "Yo'l harakati qoidabuzarliklari jarima ballari asosida baholash tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi.

Endi jarima ballari faqat yo'l harakati xavfsizligi xizmati inspektori tomonidan beyosita rasmiylashtirilgan qarorlar asosida belgilanadi. Bu degani foto va videokameralar hamda radarlar orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun jarima ballari hisoblanmaydi.

Qaror bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 12 ta moddasidagi 19 xil qoidabuzarlik bo'yicha jarima ballari miqdori tasdiqlandi.

Umuman, bir yil davomida 12 ballidan oshiq jarima bali yig'gan haydovchiga ma'muriy jazo qo'llash uchun ishi sudga oshiriladi. Bunda qo'shimcha jazo tanqasida haydovchi transport vositalarini boshqarish

huquqidan mahrum qilinadi. Bunday huquqdan mahrum qilish muddati 6 oydan kam bo'lmayligi kerak.

Nizomga ko'ra:

— jarima ballari haydovchilar qoidabuzarliklarni birinchi marta sodir etgan kundan boshlab, keyingi yil shu kunga qadar amalga hisoblanadi.

— jarima ballarini hisoblash davrida jarima ballari o'n ikki ballga yetmase, to'plangan ballar keyingi jarima ballarini hisoblash davri uchun hisoblanishiga yo'l qo'yilmaydi.

— jarima ballari tizimi "E-jarimaball" moduli orqali inson omilisi avtomatlashtirilgan tartibda hisoblanadi. Haydovchilar o'zining jarima ballari haqidagi ma'lumotlarni istalgan paytda "E-jarimaball" tizimi orqali olishlari mumkin;

— haydovchilar tomonidan sodir etilgan qoidabuzarliklar sakkiz ballga

teng bo'lganda "SMS" xabar yuborish yo'li bilan ogohlantiriladi;

— Jarima ballari faqat Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan rasmiylashtirilgan ma'muriy byayonnomalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar asosida hisoblanishi sababli, o'zga shaxslarning avtotransport vositasini ishonchnoma va boshqa shu kabi xujjatlar asosida boshqarayotgan shaxslar tomonidan sodir etilgan qoidabuzarliklar uchun javobgarlik va buning uchun jarima ballari transport vositasini boshqarayotgan shaxsning hisobiga rasmiylashtiriladi.

Darvoqe, 12 oy davomida qoida buzmag'an haydovchilarga esa rag'batlantirish sifatida keyingi yilda sodir etgan birinchi qoidabuzarligi uchun jarima yozilmaydi.

6 oy davomida qoida buzmag'an haydovchidan rag'batlantirish tarzida 2 jarima balli cheginib tashlanadi.

TA'QIQLANGAN MATERIALLARNI SAQLASHNING OQIBATI

Viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari tomonidan "Sog'lom yurt va toza hudud" tezkor profilaktik tadbirlari o'tkazildi.

Tadbirda Pastdarg'om tumanida yashovchi fuqaro T. O. ga tegishli bo'lgan "TECHNO SPARK" rusumli telefon apparati xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganida "Instagram" ijtimoiy tarmoq'idagi shaxsiy sahifasi orqali Sodiq Samarqandiyning yuritmizda ta'qilqangan diniy mazmundagi materiallarini saqlab kelayotganligi aniqlangan.

Yana shunday tadbirlarning birida Kattaqo'rg'on tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro I. N. ning "REDMI NOTE-9" rusumli telefon apparati tekshirilganida "Instagram"dagi shaxsiy sahifasida O'zbekistonda ta'qilqangan diniy mazmundagi videoroliklarni saqlab kelganligi ma'lum bo'ldi.

Aniqlangan noqonuniy holatlar bo'yicha hujjatlar jinoyat ishlari bo'yicha shahar sudga taqdim etilib, T. O., I. N. larga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJTKning 184-moddasi bilan jarima jazosi tayinlash chorasi ko'rilmoqda.

SOBIQ O'QITUVCHINING FIRIBGARLIGI OSHKOR BO'LDI

Viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasiga X. X. ariza bilan murojaat qilib, Samarqand temir yo'l texnikumida o'qituvchi lavozimida ishlovchi A. P. texnikumning sirtqi ta'lim shakliga o'qishga kiritib qo'yishni va'da qilib, evaziga noqonuniy ravishda 2 million 400 ming so'm pul talab qilayotganligini bildirdi.

Pastdarg'om tumani Juma shahridagi buyum bozorida o'tkazilgan tezkor tadbirda A. P. X. dan kelishilgan summadagi pullarni olgan vaqtda daliliy ashyolar bilan ushlandi.

Suriştiruvlarda aniqlanishicha, Qo'shrabot tumanida yashovchi A. P. joriy yilning aprel oyida Samarqand temir yo'l texnikumi tarix fani o'qituvchiligidan bo'shatilgan bo'lib chiqdi.

Akmal ABDUALIMOV, Zuhridin SARIYEV, viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari

Dam olish maskanlarida nimalarga e'tibor qaratishimiz zarur?

Ayni paytda odamlar tog' bag'rida, toza havoda dam olishni afzal ko'radi.

Dam olish shunchaki hordiq chiqarish emas, balki, toza havoda yurish, jismoniy va ruhiy tiklanishdir. So'ngi yillarda butun dunyoda, xususan, O'zbekistonda ham sog'lom turmush tarziga intiluvchilar ko'paymoqda. Kimlardir sport bilan shug'ullanib hordiq chiqarsa, yana kimlardir tabiat qo'ynida dam olishadi.

Biz ham oilamiz bilan yilda ikki-uch bor Ohangdagi joylashgan dam olish maskanlariga boramiz. Xullas, dam olish odam tanasidagi stressni kamaytiradi, uyquini yaxshilaydi, ovqatlanish tartibini normaga keltiradi. Shifokorlar ham dam olishni tavsiya qilishadi.

Maskanda odamlar o'zlari xohlagan ovqatni pishirib iste'mol qilishadi. Ammo, kechga yaqin qarabolsak, ertalab borib joylashgan toza-ozoda joyga qarab bo'lmaydi. Shohagan ichimlik idishlari, tarvuz po'choqlari va turli xil chiqindilarni yig'ishtirmasdan juftakni rostlashadi. Ferosatli kishilar o'tirgan joylarini tozalab chiqindilarni to'plab, chiqindi qutisiga tashlab ketishadi.

Xullas qilib aytadigan bo'lsak, dam olish maskaniga borganingizda o'tirgan joyingizni, idishlarni tozalab ketishni tavsiya qilgan bo'lardim. Xullas, dam olish kunlari o'zingizga vaqt ajratib, sog'lig'ingizga e'tibor berishni unutmang. Yaxshi dam, mehnatga hamdam, deb bejizga aytishmang.

Muxlisa ULDJAYEVA, SamDCHTI talabasi

Yo'nalishsiz taksi faoliyati qanday tartibga solinadi?

Bu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 2-apreldagi "Avtomobil transportida yo'lovchi tashish faoliyatini tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, qaror bilan yengil avtomobillarda buyurtma asosida yo'lovchi tashish faoliyatini amalga oshirish tartibi ham belgilandi.

Belgilangan tartibga ko'ra, o'zini o'zi band qilgan shaxslar litsenziya varaqasi asosida yo'lovchi tashish faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Haydovchi faoliyatini litsenziya varaqasida ko'rsatilgan hudud va unga tutash hududga amalga oshirishi mumkin. Bunda litsenziya varaqasida ko'rsatilgan hudud avtotransport vositasiga berilgan davlat raqami belgilarining hududiy kodlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Agregatorlar (tashuvchilarga mijozlarni izlash bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxslar) faoliyati uchun xabardor qilish tartibi joriy qilingan.

Yuridik shaxslarga tegishli yo'nalishsiz taksi kattaqatli aeroportlar, temir yo'l vokzallari va savdo majmualarining pulli to'xtash joylariga bepul kirish, shuningdek, yo'nalishli transport vositalari uchun ajratilgan maxsus harakatlanish yo'lagi bo'ylab harakatlanish huquqi beriladi.

Ushbu qaror yo'lovchi tashish sohasida xizmatlar sifatini oshirish, aholi bandligini yanada oshirish, xavfsizlikni ta'minlash va tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Rustam TO'YCHIYEV, shahar davlat xizmatlari markazi katta mutaxassisi

Oylik yakuniga yetmoqda

• Yong'in xavfsizligi oyligi



Mamlakatimizda shu yilning 20-maydan 20-iyuniga qadar "Yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha do'larab 30 kun"lik o'tkazilmoqda.

Oylik mobaynida mutaxassislar ta'lim maskanlari, turli mehnat jamoalari, mahallalarda bo'lib, yong'inidan saqlanishning tartibi va qoidalariga haqida keng tushunchalar berishmoqda. Xususan, yong'in paytida uyda unutilib qoldirilgan buyumni olib chiqish uchun xonaga kirmaslik, aks holda ko'ngilsiz hodisa ro'y berishi haqida tavsiyalar berishmoqda.

Yong'in yuz berganda uni o'chirishga harakat qilindi. Ammo, alanga yuz bergan xonada qolib ketmaslik va bu holatda jiddiy kuyish jarohatini olish mumkinligi haqida fikrlar bildirilmoqda. Olov

yonayotgan xonada qolgan kishida tutundan bo'g'ilish holati ro'y berishi mumkin. Shunday ekan, yong'in ro'y berganda xona ichida qolib ketmaslik talab etiladi. Yong'in paytida ro'y bergan o'l'im holatlarining aksariyatiga olov emas, tutundan zaharlanish sabab bo'lishi haqidagi fikrlar bildirildi.

Ko'p qavatli uylarda yong'in sodir bo'lgan paytda yuqori qavatga chiqib chiqish aslo yaramaydi. Negaki, alanga natijasida paydo bo'ladigan tutun aynan yuqoriga chiqishi, boshqa xonalarni ham zaharlashi mumkin. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, falokat yuz berishidan avval uning oldini olingan qaladir.

Sarvarbek QALANDAROV, viloyat FVB xodimi, leytenant



Biz jurnalist, shoir, eng muhimi, sadoqatli do'stimiz — Jamol Sirojiddinov bilan birga ishlash — ijod qilish baxtiga muayassar bo'lganmiz.

Bundan o'n yil avval dorulbaqoga rixlat qilgan do'stimiz Xumiy taxallusi bilan asarlar bitgan qadrdonimiz hayot bo'lganida shu kezlarda 70 yoshini qarshilagan bo'lardi.

Ayni paytda uning do'stlari, farzandlari, yaqinlari ijodkorning porloq xotirasini bilan bog'liq taassurotlar bilan yashamoqda. Taassurotlarning ma'no-mazmuni albatta, marhumning ezgu ishlari, mangu tilaklari bilan hamohang bo'ladi. Shuning uchun ham dunyodan o'tgan, ko'p do'stlar orttirgan, halol yashagan insonlar borki, uni bilganlar xotirasida mangu yashaydilar.

Jamol Sirojiddinov ana shunday ta'rifga, do'stlar e'zoziga munosib inson edi. U kishi bilan "Samarqand" gazetasida bir necha yillar baqamti ishlash baxtiga muayassar bo'lganmiz. Jamol

Ijod olamining yorqin ko'zgusi

Sirojiddinov gazetada avval muxbir, so'ngra muharrir o'rinbosari vazifalarida xizmat ko'rsatdi. Bu yerdagi faoliyatining oxirgi davrida muharrir sifatida katta jamoaga rahbarlik qildi.

Odatda, avval quyi vazifalarda faoliyat ko'rsatib, so'ngra rahbarlik kursiga o'tirgan ayrim kishilar kechagina har jihatdan teng bo'lgan, birgalikda hamqadam bo'lgan xodimlarni mensimay qo'yadi. Bugun fikr yuritayotganimiz Jamol Sirojiddinov esa rahbarlik lavozimida ham ilgari qanday bo'lsa, shundayligicha qoldi. Faqat, rasmiy topshiriq va talablarni hisobga olmasak, hech qachon hech birimizga ovozi bir parda ko'tarib murojaat etmagan.

Rahbar sifatida uning yaqin qirralari, mahorati, ishlarni monoliq ko'zga tashlangan edi. Bir safar kasb bayramimiz arafasida tahririyat hisob raqamida xodimlarni taqdirlash uchun mablag' yetishmasligi aniq ko'rib qoldi. Rahbar esa hech bo'lmasa, kasb bayramimizni munosib nishonlash, xodimlarni taqdirlash taraddudiga tushdi. Shunday kunlarning birida bir tashkilot mutasaddisi tahririyatga kelib, reklama berish niyati borligini bildirdi. Uning narxi yarim million so'm atrofida edi. Biroq, muharrir reklamani uch marta chop etishga va'da berib, mijozni 1 million so'm to'lash haqida shartnoma tuzishga ko'ndirdi. Shu tariqa kasb bayramimizni

ko'ngildagidek o'tkazish uchun moddiy zamin yaratilgandi.

Jamol Sirojiddinov ijodkorlarning yaqin do'sti, hammaslagi, yoshlarning ustoz edi. Tahririyatga tashrif buyurgan ijodkor borki, undan ilhom olib qaytardi. Uning rahbarligida ko'plab jurnalist, shoir va boshqa ijodkorlar kashf etildi. Muharrir sifatida gazeta mazmun-mohiyatini boyitish, mundarijasini kengaytirish yo'lida hamisha izlanardi. Shahardagi muhim ijtimoiy muammolar hamisha keng yoritilardi. Elektr, ichimlik suvi, tabiiy gaz ta'minotidagi uzilishlar, jamoat transporti, xizmat ko'rsatish, savdo sohasidagi dolzarb muammolarni o'rganish, yoritish yuzasidan xodimlarga muntazam ravishda topshiriqlar berib borardi. Shuning uchun biz, xodimlar muharrirning bugun menga qanday topshiriq berar ekan, degan qarashlarini kutib turardik.

Jamolidin Sirojiddinovni bilganlar, uning ijodidan xabardor bo'lganlar tashabbusi bilan uning 70 yillik tavallud ayyomi keng nishonlanmoqda. O'tkazilayotgan tadbirlar uning xotirasini ko'pchilik qalbidagi mangu yashayotganligidan darakdir.

**Botir MUHAMMADIYEV,
Baxtiyor SHARIPOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi
a'zolari**



Shahar yuziga tortilayotgan "qora parda"

Shahrimizda olib borilayotgan obodonlashtirish, ko'kalazorlashtirish ishlari kuzatib, ko'ngil yayraydi. Ammo, bu holat uzoq davom etmaydi...

Har tongda uyg'olib, ko'chani aylanib kelish odatim bor. Toza havodan to'yib-to'yib, chuqur nafas olaman. Biroq, ko'zim ko'cha chetiga uloqtirilgan, ariqchalarda qalashib yotgan chiqindiga tushishi bilan ko'nglim xijli tortadi. Chiqindilar orasida nimalar yo'q, deysiz? Tez orada ko'chani tartibga soluvchi farroshlar kelib, chiqindilarni yig'ishtirib ketishadi.

Shu bilan ko'cha, maydon, gavjum joylarimiz tartibga tushib qoladi, deb o'ylaysizmi? E'tiborsizligimiz, birovlarining mehnatiga bepisandligimiz oqibatida bir-ikki soatdan so'ng yana duch kelgan joyga chiqindi tashlash boshlanib ketadi. Negadir, bunday holatga ko'zim o'rganib ketgan.

Bunday holatning kundalik salbiy manzaraga aylanib ketishiga har birimiz aybdor, deb o'ylayman. Chunki, bizda tabiatni, atrof-muhitni asrash tushunchasi yetarli darajada shakllanmagan. Ota-bobolarimiz oqar suvni bulg'amasiq, chiqindini duch kelgan joyga tashlamaslik, gulzor, mayazorlarni payhon etmaslik haqida bizga juda katta hayotiy tajribalar asosida tarbiya berishgan. Shuning uchun, yaqin o'tmishda ham ariqdagi zilol suvdan qonib ichishimiz mumkin edi. Hozir esa vodoprovoddan oqayotgan xlorga to'yingan suvdan ichish ham xavfliroq bo'lib qoldi.

Tabiatni asrash eng oddiy tozalik talablariga amal qilishdan boshlanadi. Shahrimizning markaziy ko'cha va maydonlari, gavjum joylardagi chiqindilarni uch turga bo'lib tashlanadigan zamonaviy qutlari qo'yilgan. Uning har bir imlasiga qanday turdagi chiqindilarni tashlash lozimligi yozib qo'yilgan. Boz ustiga chiqindi turining surati ham aks ettirilgan. Afsuski, bolalar u yozda tursin, kattalar ham duch kelgan chiqindini to'g'ri kelgan bo'lмага uloqtirishadi. Qutiga tushmagan chiqindi esa atrofda sochilib yotaveradi.

Noxush manzaraning oldini olish uchun oddiy targ'ibot-tashviqot ishlari kifoya emas, deb o'ylayman. Negaki, esimni taniganimdan buyon tabiatni asrash, chor-atrofni toza-ozoda saqlash haqidagi shiorlarga ko'zim o'rganib ketgan. Bu fikrimga ko'pchilik qo'shilsa kerak. Muammoni hal etish uchun huquqli chora-tadbirlarni keng joriy etish zarur. Belgilanmagan joyga chiqindi tashlagan shaxs albatta, jarimaga tortilishi kerak. Buning uchun amaldagi qonunchilikning ta'sir doirasini kengaytirish maqsadida yangi huquqli jazo choralarini ishlab chiqilishi talab etiladi. Toki, bir bor katta jarima to'lagan qonunbuzar bundan keyin ko'zini ochib, qilimishi oqibatini o'ylab ko'rsin.

Ushbu tizimni amalga oshirish oson bo'lmaydi. Bugungi kunda barcha sohalarida qonun ijrosini ta'minlash yuzasidan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilayapti. Bunga shahrimizda keng qo'llanilayotgan turizm politsiyasi faoliyatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Ilgari shahrimizda turistlar xavfsizligini ta'minlashda muammolar bo'lib turardi. Endilikda bu tizim joriy etilgach, dolzarb muammolar deyarli hal etildi. Shu o'rinda sanitariya-ekologik politsiyani tashkil etsak, ayrim boqibeg'am, qoidabuzarlarni huquqli jihatdan jilovlash imkoniyati yaratilgan bo'lar edi. To'g'ri, hozir ham shu tizimga yaqin holat mavjud. Masalan, belgilanmagan joylarga chiqindi tashlash mumkin emasligi haqida ogohlantiruvchi eslatmalarga ko'zingiz tushadi. Hatto, jarima miqdori ham million so'mlab ekanligi yozib qo'yiladi. Ammo, bunday targ'ibot yetari samara bermayotganligi sizga ham yaxshi ma'lum. Shuning uchun sanitariya-ekologik politsiya xizmatini keng yo'lga qo'yish mavridi keldi.

**T. MAMATOV,
iste'fodagi podpolkovnik**

Ашки падар — номаи хомӯшии замон

Имрӯҳо мо аз наси зиндагии шитобкорона тохе фаромӯш мекунем, ки дилхон зинда дар интизори як наъми сада меъсана. Бахусе, дилхон волидон — махусан падароне, ки эхсосоташонро камтар нишон мебаханд, аммо дар хомӯш ашки гарон меъсана.

Киссан вокени зерин як наъм оинаст аз дунёи бешумори чуни падарон: Амридон — як падари оддин кӯхастонӣ. Дар як деҳан дурдасти Ўзбекистон зиндагӣ мекард. Танҳо умедаш ба писараш Ҳамза буд. Писар баъди хатми мактаб ба Русия барон муҳожират рафт. Бо ваъдаҳо, бо орзуҳои бузург: «Дадачон, ҳар мекунам, шумо дигар кор накуне!»

Авалҳо ҳар рӯз наъм мефиристод, ҳар ҳафта видеоанг мекард. Падар бо як телефони оддин тутмакшан дар паёмо дахҳо бор меонд. Ҳар садон занги телефон — як шодин нав.

Аммо вақт гузашт. Занҳо кам шуданд. Паёмакҳо дер-дер омаданд. То охири... тамоман китъ шуданд.

Падар — Амридон, ҳар бегоҳ чашм ба телефони хомӯш мекуфт. Телефони сода, ки ёдгори ниску орзу буд. Ҳар шом навори кӯҳлор боз мекард: Ҳамза бо чехран ҷавон мекуфт:

«Дадачон, дӯстон маро диявҷ мекунанд, вале дили ман назди шумост. Дуо кунед.»

Аммо дигар ҷисе набуд.

Шабе омад, ки шамъ сӯхт, барқ набуд, ва телефон низ паём надишт. Падар охири бор ашк рехт. Ҳеч кас оиро наид. Паёме навишт, аммо нафиристод:

«Ҳамзаҷон... як бор навис... падар бои интизор аст.»

Субҳи дигар, ҳамсоя фарзандашро фиристод, то хабар бигирад. Кӯдак дари нимоишро кушод. Падар нишаста буд, телефони хомӯш дар дасташ, ва чашмонаш баста. У рӯфта буд — дар хомӯшӣ, дар интизори як паём.

Андеша ва ҳулюса. Мо дар замоне зиндагӣ дорем, ки тамос гирифтани як лиҳза аст, вале беаҳамиятӣ як умрро меъсанад. Ашки падар садо надорад, тохе хомӯш



аст, вале тахлат аз ҳама нолаҳо.

Ин хиния танҳо достони як нафр нест. Ин фоҷиан ҳазорон воқеае, ки фарзандонашон ба «онлайн» будан олат карданд, вале «ноусх додан» фаромӯш шудааст.

Падар мурд, ба бо ғуруснагӣ ва ба бо тирӣ — балки бо диле пур аз умеди шикста.

Бӯёда, пеш аз он ки дер шавад, як паём навишем. Як «Салом, дадҷон!» мета-вонад як дили ғирро зинда созад.

**Дўрбек ХОЛИҚОВ,
зоинишчӣ**

TALABA-YOSHLAR BO'SH VAQTLARINI MAZMUNLI O'TKAZMOQDA

2025-yil 15-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan bir qancha usutuvor vazifalar bilan bir qatorda yoz oylarida o'quvchi hamda talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan edi.



Shu munosabat bilan Davlat rahbari tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bir qator ishlar amalga oshirilmogda.

Jumladan, universitetning turli fakultet va kafedralari mas'ullari tomonidan tashkil etilgan talaba-qizlar o'rtasida bo'lib o'tgan "Pazandachilik sirilari" tanlovi, barcha fakultet talabalari o'rtasida sportning voleibol, stol tennis, shaxmat, futbol bo'yicha talabalar ligasi hamda universitet birinchiligi, kibersport musobaqalari, "Kitobxon yoz - 2025" nomli intellektual kechasi, "Zakovat" intellektual o'yini, "Mutolaa zavq" kitobxonlik kechasi, "Talabalar kino vaqti" tadbiri kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport va intellektual o'yinlar o'tkazib kelinmogda.

Loyiha doirasida talabalar yotoqxonasida "Talabalar Kechasi" bo'lib o'tdi. Ko'tarinki ruhda o'tgan kechada talabalar ijrosida turli kuy-qo'shiqlar ijro etilib, "Zakovat" intellektual o'yini, rasmlar va "Kitobxon talaba" tanlovlari o'tkazildi. Talaba-yoshlar stol tennis, shaxmat, arqon tortish, tosh ko'tarish bo'yicha o'z imkoniyatlarini sinab ko'rdilar. G'oliblar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Bekzod ERKINOV

Muharrir v.b: Olim SONNIBOYEV

Gazeta Samarqand viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 06.09.2012-yilda 09-05 raqami bilan qayta ro'yxatga olingan. Indeks: 5505

Gazeta tahririyat matbaa bo'limida terildi va sahifalandi. Tahririyat matbaa bo'limi O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2.06.2017-yilda 18-3959 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Gazeta «Noshir lyuks» MChJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

MANZIL: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy.

TELEFONLAR: +998 66 233-58-40, +998 66 233-67-79.

Gazeta haftaning payshanba kuni chiqadi.

Tahriyotga kelgan qo'symalar ma'nofiyatga ega bo'lmaydi. Sotuvda erkin narsa.

Navbatchi: Qusovdun XALILOV

Sahifalovchi: Abdushukur ISMOHIL ZODA

Boshqa tashkilotlar tomonidan chop etilgan narsalar.

Boshqa tashkilotlar tomonidan chop etilgan narsalar.

Buyurtma: 289 Adadi: 3 005 nusxa.

SAMARQAND



MUASSIS: Samarqand shahar hokimligi